

X.DO' STMUHAMMADNING "PANOH" QISSASIDA SYUJET ASOSIY OQIMINI O'ZGARTIRISHGA QODIR OBRAZLAR TAHLILI

Salimova Rayxona Burxon qizi

Guliston davlat universiteti Filologiya tillarini o'qitish

(o'zbek tili) yo'nalishi 2-bosqich talabasi

e-mail: salimovarayxona00@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada asar voqealar rivojini burishga qodir qahramonlar xarakteri ochib berilib, ularning asardagi roli tahlil qilindi.

Abstract: In this article, the characters capable of altering the course of the plot were analyzed in terms of their traits, and their roles within the work were examined.

Kalit so'zlar: bosh obraz, yordamchi obraz, voqealar rivojini harakatga keltiruvchi obrazlar, insof, diyonat, diyonatsizlik.

Key words: The work highlights concepts such as the main character, supporting characters, plot-driving figures, as well as themes of integrity, honesty, and dishonesty.

Adabiyotning inson uchun ta'sir kuchi sezilari bo'lib, unda inson qalbi, jamiyat hayoti va zamon ruhi aks etadi. Har bir badiiy asar kitobxonga chuqur ma'no, nozik kechinmalar hamda o'ziga xos xulosalar taqdim etadi.

Chet el adabiyotidan Ronald Barthes[1], Gerarg Genette[2], Seymour Chatman[3] lar o'z asarlarida syujet va uning asosiy oqimini o'zgartiruvchi obrazlar haqida ma'lumot va nazariyalar bergan. Bu nazariyalar asosida voqealar rivojini o'zgartiruvchi obrazlar voqealarning strukturaviy va semantik o'zgarishlarini yaratadi. Ular syujetga yangi ma'nolar olib kiradi va o'quvchini voqeaga qiziqtirish uchun zarur.

Asar qurilishida tutgan o'rniga qarab obrazlar bosh va yordamchi obrazlarga bo'linadi.

Asar voqealarining markazida turib, asar syujetini harakatga keltiradigan va oxirigacha rivojlantiradigan, asar bosh g'oyasini o'zida tashiydigan shaxslar bosh obraz bo'lsa, badiiy asarda ma'lum bir g'oyani (asardagi bosh g'oyaning kichik bir bo'lagini) ifodalovchi, syujet davomida bir, ikki ko'zga ko'rinadigan obrazlar yordamchi obrazlar deyiladi[4].

Asar syujetida muhim o'rin tutuvchi bosh qahramon-Ahmadali. Jo'ba qishlog'ida zilzila sodir bo'lishi bilan voqealar rivojlanib boradi. U uyiga borguncha zilzila sabab yordamga muhtoj bo'lib turgan insonlarga yordam berib, ichki "men"i (Kimsan) bilan suhbat qurib boradi. Yo'l-yo'lakay yoshlik xotiralarini eslagan Ahmadali chuqur o'yga toladi. Uning ayoli Ma'rifat yosh kadr bo'lgani uchun qo'llab-quvvatlash maqsadida unga posyolkadan ko'p qavatli uy beriladigan bo'ladi. Dastlab, Ahmadali bu xabardan

quvonib ketadi. Akasi, opasiga bu haqida gapirganida ular Odilbekovlarning butun shajarasi yashab kelgan bu uyni tashlab ketishiga norozi bo'ladi. Ko'p xonali uyning qulayligini vaj qilgan Ahmadaliga akasi tubandagi fikrni aytib, xulosa chiqarishga undaydi: "Qulaylikka-qulay, faqat erta-yu kech qulaylikni o'ylaydigan bo'lib qolyapmiz-da, uka...", "Bor-shudimizni qulay yashashga almashib yuboryapmiz".

Voqealar rivoji davomidan Ahmadalining tirnog'i etidan ajralib tushadi. Tushadi-yu, qon oqmasdan, faqat zirqirab og'riydi. O'z qishlog'ining qanchalar qadrdon, o'z hovlisining tabarruk ekanligini anglab yetgan Ahmadali uyini, qishlog'ini etiga, o'zini esa etdan ajralib qolgan tirnoqqa qiyoslaydi. Demak, qadrdon go'shasidan ayrilgan insonning ham ko'rinishi sog'lom-u, ich-ichidan zirqirab tinchlik bermaydigan dardi bor!

Asar so'nggida akasining gaplarini o'ylab ko'rgan, bolalik xotiralarini hadya etgan bu hovlidan ketolmasligini anglab yetgan Ahmadali xayolida akasining: "Bor-shudimizni qulay yashashga almashib yuboryapmiz!", degan so'zlari charx uradi. Ahmadali tabiatan uzoqni o'ylaydigan, farzandlari uchun hamma narsaga tayyor ota sifatida tasvirlanadi. Xususan, u zilziladan so'ng uyiga shosharkan, xayollari tinchlik bermaydi: "Ahmadali qulagan devor uyumlariga qoqilmay-netmay ko'chaga chiqdi. Uyi tomon yugurdi. O'g'lini birga olib chiqmagani uchun o'zini o'xshatib so'kdi".

Keyingi asar voqealar rivojini o'zgartira oldigan yordamchi obrazlardan biri-Ahmadalining otasi-Abdiali. U qishloqdagi Ona o'rikning danagidan olib kelinib, ekilgan uch tup o'rik uchun "Xalq dushmani" sifatida tergov qilinib, qamoqqa olinadi. Abdiali tabiatan juda sodda inson. Uni oddiy o'rikni "o'zlashtirgan"i uchun "Xalq dushmani"ga chiqarib o'tirishganida ham: "Axir qishloqdagi hamma o'riklar ona o'rikdan tarqagan... Shunga qaramay har bir hovlidagi o'rik-o'sha xonadon egaainiki hisob!", degan gapni ochiq aytolmaydi. "Qishloqdagi shuncha inson ko'chat olsa-yu, nega faqat men olganim ko'zlaringga ko'rinadi?", deb o'zini "oqlash" ham xayoliga kelgan emas.

Keyinchalik qamoqdan chiqib, "oqlangan"ida ham o'z qishloqdoshi bo'lmish Appon zakun bilan sen-u menga bormaydi. Yangi qurilgan maktabga direktor bo'lishni iltimos qilganlarida: "Appon Ahmedovich obodonlashtirish boshlig'i bo'lgan joyda men ishlolmayman ham, yasholmayman ham!", deb qo'ya qoladi.

Abdiali-oriyatli, hamiyatli inson. Qamoqdan chiqib kelganidan hovlini o'rab turgan devorni ancha ichkariga siljitib, o'rik daraxtlarini devordan tashqarida qoldirgan bolalaridan mamnun bo'ladi. Yillar o'tib o'rik qanchalik ko'p hosil bermasin, bir dona og'ziga olmaydi.

Abdialining qamalishi uchun sabab bo'lganlardan biri-Appon zakun. U insofsiz, diyonatsiz inson bo'lib, tergov jarayonida arzimagan narsalarni ayb deb Abdialining bo'yniga qo'yadi: "Hayf-e, sizga muallimlik! Shunday ajoyib zamonda "yil og'ir keldi" deyishga qanday tilingiz bordi?.. "Toshdanak" emish-a... Kolxozning boqim

sigiridek naq uch tup qanddak o'rigini o'zingizniki qilib, hovlingizga qo'shib oldingizmi, bas, sizdek odamdan hukumatga yaxshilik sog'inish harom. Bas, bu qing'irlikni zakun ko'tarmaydi!.."

Abdialining : "Appon aka, nimalar deyapsiz?.. Axir biz siz bilan bir tuproqning farzandlarimiz, bir o'rikning mevasini yeb katta bo'lganmiz, aka !..", degan gapini u aybini bo'yniga olishga yo'yadi.

Zilzila bo'lgan kuni Sayfullo boboning tirik qolishini qishloq ahli uning yaxshi insonligi bilan bog'lasa, Appon zakunning tirik qolishini hali beri o'lmasligi, yomonga o'lim yo'qligi bilan bog'laydilar. Ba'zilar bu ikki insonni solishtirishni o'ziga ep ko'rmay, Appon zakunning yo'rig'i boshqa ekanini ta'kidlaydilar.

Asardagi insoniy sifatlarga ega bo'lgan obrazlardan biri-Ro'zixon aya. Ahmadalining onasi qamalgan turmush o'rtog'i bilan ko'rishish ilinjida qamoqxonaga qatnaganida Ro'zixon aya bir necha marta go'dak Ahmadalini o'zi bilan birga olib qolgan. Bu haqida Ahmadali onasining nutqidan bilish mumkin: "Ro'zixon ayang yuvosh kampir... Otang rahmatli oqlanib qaytganlarida bor gapni qo'ni-qo'shnilarga aytib yurdi. Sho'rlik seni boqib o'tirganini ko'rgan eri: "Xalq dushmanining bolasiga achingan odamning o'zi ham dushman", deb o'lasiz qilib kaltaklagan ekan".

Oxir bo'lmagach, go'dak Ahmadalini tashqarida qoldirib, ayolini uyga olib kiradi va: "Ovozing chiqsa bo'g'aman", degan po'pisadan qo'rqib Ahmadalini onasi kelib olib ketmaguncha tashqariga chiqmaydi. Keyinchalik Ro'zixon aya bu ishdan ko'p pushaymon bo'lganini aytib, uzrlar so'raydi, xijolat tortadi Ahmadali: "Qo'yavering, o'tgan ishga salovat, esdan chiqaring, aya", deganida: "Yo'q, bolam, xudodan qo'rqaman, o'g'lim. Men unutsam, xudoyim unutmaydi", -deb zor qaqqshaydi.

Asarning voqealari Ma'rifatga ko'p xonali uy berilishi bilan rivojlanib boradi. U ham "maktabni opichlab kelayotgan muallimlar" qolib, unga uy tegishidan xursand bo'ladi, yangi uyda hamma qulaylik borligini o'ylashi bilan sevinadi. Odilbekovlarning butun ajdod-avlodi yashab kelgan uyi vayrona bo'lib qolishi uning xayoliga ham kelmaydi.

Asarda bu obrazlardan tashqari yana o'nlab qahramonlar mavjud bo'lsa ham, ular voqealar rivojining yangicha tus olishiga sezilarli hissa qo'shmagan.

Xulosa qilib aytganda, mazkur asarda tasvirlangan qahramonlar voqealar tizginini o'zgartirish qobiliyati bilan qolgan personajardan ajralib turadi. Ular nafaqat o'z hayotini, balki atrofdagilar taqdirini, umuman, jamiyat taqdirini ham o'zgartira oladilar. Ularning jasorati, qobiliyati va fidoyiligi, joyi kelganda, qat'iyatsizligi va diyonatsizligi orqali shuni anglaymizki, har qanday vaziyatni yo ijobiy, yo salbiy tomonga burish mumkin-agar kishida maqsad, xohish yoxud g'araz va iymonsizlik bo'lsa. Bunday qahramonlardan kitobxon kuch va ilhom oladi, kezida nafratlanib, zarur xulosalar chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Barthes, Ronald. S/Z. Paris: Seuil, 1970.
2. Genette Gérard. Narrative Discourse: An Essay in Method. Cornell University Press, 1980.
3. Chatman, Seymour. Story and Discourse: Narrative Structure in Fiction and Film. Cornell University Press, 1978.
4. Umurov Hotam. Adabiyotshunoslik nazariyasi. A. Qodiriy, Toshkent-2004.
5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Noshir, Toshkent- 2019.
6. Do'st Muhammad Xurshid. Panoh. Sharq, Toshkent-2011.
7. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Navoiy universiteti, Toshkent-2018.